Strategiyada iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish asosida yalpi ichki mahsulotni kelgusi besh yilda aholi jon boshiga 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish uchun zamin yaratish ko'zda tutilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuksalish – faol innovatsion taraqqiyot yo'lga o'tgan sanoat tarmog'ining ta'siri tufayli ro'y bergan, desak to'g'ri bo'ladi.

“Innovatsiya – bu insonning tasavvurida, ijodida “pishib” yetilgan, aqliy mehnatning yakuniy natijasi sifatida ixtiro qilingan, joriy qilingan, kiritilgan, ishlayotgan moddiy va nomoddiy ko'rinishdagi mulkni ifodalovchi tushunchadir”<sup>2</sup>.

“O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat sanoatlashtirish siyosati faqat sanoatning an'anaviy tarmoqlarini taraqqiy ettirishdan ko'ra, ilm sig'imi va qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan, zamonaviy va ilg'or texnologik tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ilgargisidan farq qiladi. Bu masalaning bir tomoni. Boshqa tomondan, sanoat ishlab chiqarishining texnik-texnologik tuzilishi faqat va faqat innovatsion va kreativ yondashuvlarga tayanadi, sohaga ilm va yuqori texnologiyalarni uzluksiz joriy etmasdan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarisiz ishlab chiqarish samaradorligini va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishni tasavvur etib bo'lmaydi. Bu yondashuvlar bugun sanoat sohasini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarda o'z aksini topmoqda”<sup>3</sup>.

“Hozirgi globallashtirish sharoitida fan texnika taraqqiyotisiz jahon iqtisodiyoti rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, fan-texnika sur'atlarining o'sishi, ilmiy jihatdan ishlab chiqarish va xizmatlarning iqtisodiy o'sishning jadallashuviga turtki bo'ladi”<sup>4</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumot manbalarini chuqur o'rganish va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan. Maqolani yozishda tadqiqot metodologiyasining qiyoslash, umumlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

## TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi sharoitida, tashqi bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun aksariyat davlatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirishda va mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan yuksak samarali texnologiyalarni joriy etishga katta e'tibor qaratishmoqda. Shu sababdan ham sanoatni rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi keskin raqobat muhiti sharoitida innovatsiyalardan keng miqyosda foydalanishni talab qiladi.

Iqtisodiyotning hozirgi zamon rivojlanishiga xos bo'lgan jihat – dunyoning yetakchi mamlakatlari postindustrial jamiyat shakllanishining yangi bosqichiga – ilg'or bilimlar yaratish, tarqatish va foydalanishga asoslanadigan iqtisodiyot yaratishga o'tishi hisoblanadi. Jamiyatda kam uchraydigan noyob ko'nikma va qobiliyatlar, ularni doimiy ravishda o'zgarib turadigan faoliyat sharoitlariga moslashtirish, yuqori malakali va yetakchi ishlab chiqarish resursiga, shaxsning sotsial maqomi va moddiy farovonligining asosiy omiliga aylanadi.

Bugungi kunda ilm va fan yutuqlari, kadrlar va ilmiy salohiyat, tabiiy resurslar kabi mavjud obyektiv omillardan samarali foydalanayotgan mamlakatlar o'z rivojlanishlarida ilgari bormoqda. Va buning natijasida o'z fuqarolarining turmush farovonligini oshirishga va hayot sifatini yaxshilashga erishmoqdalar hamda ichki iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlarning yangi tizimini shakllantirmoqdalar. Zamonaviy fan yutuqlaridan, yangi texnika va texnologiyalardan foydalana olmayotgan mamlakatlar esa yuzaga kelgan yangi shart-sharoitlarga moslasha olmayaptilar.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – raqobatbardosh, eksportbop hamda import o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, u sanoatning barqaror va mutanosib ravishda o'sishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash asosida uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Yurtimizning mustaqil taraqqiyoti davomida to'plangan tajribalar dalolat beradiki, har qanday davlat iqtisodiyotining negizi bo'lgan sanoat – integratsiya asosida hamda jahon hamjamiyati talablari darajasida ravnaq topishi kerak.

2 Shavqiyev E. . Sanoat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “STAPSEL” MChJ. nashriyat-matbaa bo'limi, 2022, 181 bet.

3 Xolmatov N. B. Milliy sanoatlashuv jarayoni muammolarini o'rganishga institutsional yondashuv “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020-yil, 1/2020 (№ 00045) 142 bet <http://iqtisodiyot.tsue.uz>.

4 Umaraliyev B. A. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017-yil. 2 bet. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)



O'zbekiston sanoati oldida turgan dolzarb masala – ishlab chiqarilayotgan va qazib olinayotgan xom ashyoni kompleks qayta ishlash, ya'ni chiqindisiz qayta ishlash asosida, respublikaning o'zida uni tayyor mahsulotga aylantirishdadir.

Respublikada zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan qudratli qayta ishlash sanoatining bunyod etilishi, uzluksiz o'sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, mamlakat yalpi ichki mahsulotining yuqori sur'atlarda o'sishiga va yurtimizning har jihatdan uyg'un rivojlanishiga, O'zbekistonnin eksport salohiyatini oshirishga, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga va uning negizida bir qator tovarlarni import qilishni butunlay to'xtatishga sabab bo'ladi.

Sanoatning milliy iqtisodiyotdagi roli va o'rnini quyidagi jadvaldan aniqroq ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari<sup>5</sup> (amaldagi narxlarda, mlrd. so'm)

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2019-yilning 2022-yilga nisbati, %
Yalpi ichki mahsulot	532 712,5	605 514,9	738 425,2	888 341,7	166,8
Shu jumladan:					
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	487 449,8	561 153,4	686 432,4	828 054,2	169,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	164 635,7	187 610,0	232 535,7	276 227,0	167,8
-sanoat	134 185,8	150 275,1	186 978,2	220 704,3	164,5
-qurilish	30 449,9	37 334,8	45 557,4	55 522,7	182,3

1-jadval ma'lumotlari dalolat beradiki, 2019–2022-yillarda mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi 66,8 foizga o'sgan bir paytda tarmoqlarda yaratilgan yalpi qo'shimcha qiymat 69,9 foizga, sanoatda hosil bo'lgan qo'shimcha qiymat miqdori esa 67,8 foizga ortgan. Bu, tabiiyki, mamlakatning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish va xizmatlar sifatining oshayotganidan hamda ularga ichki va tashqi bozorlarda talabning o'sishidan, shuningdek, ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlarning pasayoiganidan dalolat beradi.

Ammo, bu ko'rsatkichlarni rivojlangan mamlakatlarni bilan qiyoslaydigan bo'lsak – sanoat tarmog'ining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hisssasi (ularga nisbatan) juda ham oz.

Sanoat – sotsial-iqtisodiy kategoriyadir. Uning tabora taraqqiy etishi – aholi bandligi darajasining va daromadining oshishiga, uning iste'mol mollariga bo'lgan talabning to'liqroq qondirilishiga, mamlakatning iqtisodiy va mudofaa qudratini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Tahliliy ma'lumotlarining guvohlik berishicha, respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yili 2019-yilga nisbatan 230729,2 mlrd. so'mga yoki 1,7 barobarga ko'paygan<sup>6</sup>. O'rganilayotgan davrda ishlab chiqarish indeksi har yili ortib bormoqda. Bu davlatning islohotlar strategiyasini – sanoatlashtirish siyosati bilan barobar olib bora boshlaganining natijasidir.

Tarmoqda band bo'lgan aholi soni 2022-yilda 2019 va 2021-yillarga nisbatan, mos ravishda, 10,9 va 52,6 ming kishiga yoki 0,6 va 2,8 foizga kamaygan, faqatgina, 2020-yilga nisbatan 1,1 ming kishiga yoki 1,0 foizga ko'paygan<sup>7</sup>. Shuningdek, ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri hisoblanmish – asosiy fondlar hajmi 198406,8 mlrd. so'mga yoki 2,6 barobarga ortgan<sup>8</sup>.

Sanoatning rivojlanishi – ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqeining ko'tarilishiga olib keladi. Tarmoq ishchilari respublika yalpi ichki mahsuloti, milliy daromadning asosiy qismini bunyod etishdada, mamlakat sotsial-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishda faol ishtirok etmoqda.

Sanoat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri – sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy darajasining o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir.

Mamlakatimiz sanoati ishchilari qiyofasida (rivojlangan davlatlar ishchilaridagidek) ongli industrial mehnatkash insonlar munosabatining yuksak me'yorlari va umuminsoniy tamoyillarini, qadriyatlarini qaror toptiruvchi, yangi hayot uchun ilg'or kurashchi xislatlari bir butun bo'lib mujassamlashgan.

Tarmoq xodimlarining bilim va ko'nikmasining, ishlab chiqarish malakasi va mahoratini, madaniy va ma'rifiy saviyasini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ham sanoatning yuqori o'rin tutishini ko'rish mumkin.

Sotsial-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – bu raqobatdir. Hozirda, mamlakatimizning sanoat ishlab chiqarishida ham bellashuv (raqobat) rivoj topmoqda. Ilg'or texnika

5 O'zbekiston sanoati 2019–2022. – T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2023, 13 bet.

6 O'zbekiston sanoati 2019–2022. – T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2023, 15 bet..

7 O'sha manba, 75 bet.

8 O'sha manba, 53 bet.



va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko'tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko'tarish uchun harakat va boshqa mehnat an'analari ham avvalo, sanoat sohasida vujudga kelgan va kelmoqda.

Sanoat – mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy asosi, el-yurtida tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo'shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlati mudofaasini kafolatlashda sanoatning roli bebahodir.

Respublika sanoatida tarmoqlarning tutgan o'rnini har xil. Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat kompleksiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa tarmoqlardir.

Statistik ma'lumotlar tahlili dalolat beradiki, 2019–2022-yillari yurtimiz sanoati faoliyatining qariyb barcha turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish o'sish tendensiyasiga ega. So'nggi yillarda mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylar, yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlarni ishlab chiqarish, elektr, gaz, bug' bilan ta'mirlash va havoni konditsiyalash hamda to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi yuqorilab borayotgani kuzatiladi<sup>9</sup>. Bunday jarayonni, bizning fikrimizcha, mamlakat iqtisodiyotining sanoatlashayotganidan darak berayotir, desak to'g'ri bo'ladi.

O'rganilayotgan davrning oxirgi yillarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish ishlari indeksi sezilarli darajada pasayib bormoqda. Bunday holat, bizning fikrimiza, ushbu faoliyat turlariga tegishli shaxobchalar moddiy-texnika bazasining eskirishi hamda malakali mutaxassislarning yetishmasligi bilan bog'liq.

Sanoat taraqqiyoti – mamlakat tabiiy boyliklaridan, xom ashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratadi. Respublika sanoatida 2022-yil oxiriga 2349 ta<sup>10</sup> yirik va o'rta, 97 911 ta<sup>11</sup> kichik korxonalar va mikrofirmalar mavjud.

Metallurgiya – sanoat ishlab chiqarishda yetakchi hisoblangan davlatlarda, iqtisodiyotning hal qiluvchi tarmog'i hisoblanadi. Aynan metallurgiya boshqa sohalarga ham global bozorda ustuvorlik qilishga, xususan, sifatli prokat ishlab chiqarishga ko'maklashadi.

Bugungi kunda metallurgiya mahsulotining eng yaxshi turlari AQSh, Yaponiya, Rossiya va G'arbiy Yevropa davlatlarida ishlab chiqariladi. Bu davlatlar ishlab chiqaruvchilari ichki bozor talablarini qondiribgina qolmay, balki xorijga yuz millionlab dollarga teng bo'lgan prokatni eksport qilib kelishmoqda. Dunyo miqyosida sifatli prokatga ehtiyoj ortib borayotganligi ham soha dolzarbligini belgilab bermoqda.

Metallurgiya sanoati respublika iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Uning tarkibiga qora metallurgiya va rangli metallurgi sanoat tarmoqlari kiradi.

Qora metallurgiya – metallurgiya sanoatining sohasidan biri. U domna, po'lat eritish, prokat metallurgiyasi, metall buyumlar ishlab chiqarish, ruda xom ashyosini qazib olish, boyitish, maydalash, koks kimyosi ishlab chiqarishi, ferroqotishmalar va o'tga chidamli materiallar tayyorlash, noruda xom ashyo qazib olish va qora metallarni qayta eritish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Sovuqlayin yoki qizdirib ishlangan prokat, po'lat trubalar va metall buyumlar qora metallurgiya mahsulotlarining muhim turlari hisoblanadi.

Mamlakatimizda qora metallurgiya sanoati bo'yicha to'ng'ich va yuqori navli prokat mahsulotlari, po'lat zoldirlar ishlab chiqaruvchi korxonalar – bu Bekobod shahridagi "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasidir. Unda qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po'lat va po'lat prokatlari), turli aylanma xajimdagi po'lat soqqalar, chiroyli va bejirim sirli idishlar ishlab chiqariladi.

Metallurgiya tarmog'ini, ayniqsa qora metallurgiyani kengaytirish – yirik muammolardan biridir. Zero, busiz milliy iqtisodiyotning rivojini tasavvur etish qiyin.

Keyingi o'n yilliklar davomida mazkur tarmoqda, ma'lum darajadagi tanqislik sezildi. Yangi metallurgiya quvvatlarini ishga tushirish juda qimmat loyiha hisoblanishi uchun faqatgina rivojlangan iqtisodiyot va infratuzilmaga ega bo'lgan davlatlar bunga qo'l urishi mumkin.

Mutaxassislarning baholashicha, yangi metallurgiya quvvatlarini ishga tushirish strategik ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, unda qurilish industriyasi uchun korroziyaga qarshi himoya qatlamiga ega bo'lgan sovuq bosimli metall ishlab chiqariladi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, so'nggi olti yilda O'zbekistonda import o'rnini bosish va mahalliy-lashtirish dasturlari faol amalga oshirilmoqda. Bu vazifaning ma'lum qismi Toshkent viloyati Zangiota tumanida barpo etilgan "Toshkent metallurgiya zavodi" MChJ QK zimmasiga yuklatildi. Zavod 2017-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va xorijiy investor ishtirokida tashkil etildi. Bugungi kunda ushbu zavod O'zbekistondagi eng yirik va zamonaviy sanoat korxonalaridan biriga aylandi.

9 O'zbekiston sanoati.2019–2022 – T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2023, 22–23 betlar.

10 O'sha manba, 27 bet.

11 O'zbekiston sanoati.2019–2022 – T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2023, 31 bet.



Zavod qurilishidan ko'zlangan asosiy maqsad – iste'mol bozorini (qo'shni va uzoq xorijdagi ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlasha oladigan) yuqori sifatli, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar bilan ta'minlashdan iborat. Bu, o'z navbatida, qurilish, sanoat va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga o'z xarajatlarini va narxlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Uning ishga tushirilishi respublikaning metallurgiya mahsulotiga bo'lgan import tobeligini kamaytirib, industrial salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu O'zbekiston uchun o'ta muhim hisoblanadi.

To'liq ishga tushgandan so'ng, zavod mahsulotining 20 foizi Eron, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Latviya, Litva va Estoniyaga eksport qilinadi<sup>12</sup>.

Qora metallurgiya sanoati korxonalarini faoliyatini kengaytirish va ular ishlab chiqarishayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bir qator omillarga bog'liq. Jumladan:

- xom ashyo zaxiralarining mavjudligi;
- moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- uzluksiz gaz, elektr energiyasi va suv bilan ta'minlanishi;
- zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanganligi;
- innovatsion marketing asosida ishlab chiqarishni takomillashtirish;
- ortiqcha, kam foydalaniladigan va ma'naviy eskirgan asosiy vositalarni tugatish;
- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'yimaslik va boshqalar.

Respublikada iste'mol bozori muammosini hal etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunda, avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni izga solib, bevosita iste'mol bozoridagi nochor ahvolni tuzatish, shu bilan birga eng zarur noziq-ovqat mollari ishlab chiqarilishini ham yo'lga qo'yish zarur bo'ladi.

Bu muammoning yechimini topishda, mamlakatimizda avj olayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik juda qo'l kelmoqda. Ularning afzalliklari shuki, katta kapital xarajatlarni talab qilmaydi.

Bugungi kunda, yangi ishchi o'rinlarini yaratishda, aholi daromadlarining oshishida va mamlakatning iqtisodiy o'sishida kichik sanoat korxonalarini va mikrofirmalarining o'ri sezilarli bo'lmoqda.

Mamlakatimizda 2019–2022-yillarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (oziq-ovqat, ichimliklar, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari, mebel va boshqalar)ning 95,8 va undan yuqori foizi kichik sanoat korxonalarini va mikrofirmalarining hissasi to'g'ri kelgan. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ulushi 2019–2020-yillarda pasaygan bo'lsada, bu ko'rsatkich 2021 yilda biroz yuqorilagan. Tarmoqning boshqa shaxobchalarining umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi ham sekin bo'lsada oshmoqda<sup>13</sup>.

Shuni ta'kidlash lozimki, kichik sanoat zonalarini tashkil etilishi orqali mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash – respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Keyingi paytlarda har bir tumanga sanoat kirib bormoqda, olis va chekka hududlarda yangi ishlab chiqarishlar paydo bo'lmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishining pirovard natijalari fakat sanoat tarmog'i rivojlanish darajasiga emas, balki unga xizmat ko'rsatish tarmoqlariga ham bog'liqdir. Ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan sanoat tarmog'ida moddiy-texnika resurslari, kerakli xom ashyo va yordamchi materiallardan foydalanish hajmi ham oshadi, shuningdek, elektr energiya, transport, aloqa vositalariga, mahsulotni saqlash joylariga talab ortadi.

Bundan tashqari, sanoat korxonasining moddiy texnika ta'minotiga, ta'mirlash-texnik xizmatiga, muhandislik va boshqa xizmatlarga bog'liqlik darajasi o'sadi. Shu sababdan, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar va tashkilotlarning rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday tarmoqlar va xizmatlar – iqtisodiyotda infratuzilma deyiladi.

Sanoat ishlab chiqarish infratuzilmasi – tarmoqning rivojlanish darajasini, ishlab chiqarish salohiyatini (ya'ni xizmat ko'rsatish bo'yicha muayyan ish hajmini bajarish imkoniyatini) aks ettiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Yalpi ichki mahsulot va yalpi qo'shilgan qiymatning salmoqli qismi sanoat tarmog'ida ishlab chiqariladi. Aynan sanoat ishlab chiqarishida ilmiy-texnikaviy yutuqlarni joriy etish orqali yangi asbob-uskunalar, qurilmalar va boshqalar yaratiladi. Va ular, o'z navbatida, boshqa tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlashda foydalaniladi. 2019–2022-yillarda sanoatda (qurilishni qo'shgan holda) yaratilayotgan qo'shimcha qiymatning hajmi yildan-yilga ko'payib bormoqda. Biroq, bu tarmoqning mamlakatda yaratilayotgan qo'shimcha qiymatdagi ulushi, 2022-yili 2019-yilga nisbatan 0,4 punktga pasaygan. Bu davrda, xizmatlar sohasining ulushi hamon yuqori darajada

<sup>12</sup> Rivojlanish strategiyasi. Toshkent metallurgiya zavodi mintaqaning sanoat yetakchilaridan biriga aylanmoqchi. Batafsil.uz <https://batafsil.uz> › obchestvo 4 December 2019, 13:23 558

<sup>13</sup> O'zbekiston sanoati.2019–2022 – T. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2023, 33 bet.





bo'lmogda. Bu tabiiy hol. Chunki, O'zbekistonda xizmatlar – iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida kichik sanoat korxonalarini va mikrofirmalar sonining ortishi – texnika servis tizimida ham raqobat muhitining shakllantirilishini taqozo etadi. Shu sababdan, turli mulk shaklidagi texservis xizmat ko'rsatuvchi muqobnl korxonalarini yaratish o'ta muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda kichik sanoat korxonasi alohida texnik xizmat ko'rsatish markazini tashkil etish imkoniyat (etarli pul mablag')lariga ega emas. Bunday sharoitda, bizning fikrimizcha, bir necha xo'jaliklar, (jumladan, mikrofirmalar) birlashgan holda korxonalararo texnik xizmat ko'rsatish (servis) markazini tashkil etish maqsadga muvofiqdir, Ushbu servis markazi xizmatidan uni tashkil etgan korxonalar nng o'zlari foydalanligi uchun xizmat xaki tariflari oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi va tariflar o'zaro kelishuviga asosan manfaatli darajada belgilanadi. Texservis markazi xizmatidan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda aholi foydalanishlari mumkin bo'ladi.
3. Sanoat ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi nfratuzilma subyektlarini shakllantirishda davlat tomonidan huquqiy, moliyaviy, tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish.
4. Sanoat tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni sanoati rivojlangan xorijiy mamlakatlarda malakasini oshirish, qayta tayyorlash.
5. Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan va uning natijalarini ilgari surayotgan sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan, ularga soliq, bojxona boji kabi majburiy to'lovlar yuzasidan imtiyozlar berish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, PF–60-son Farmoni (1-ilova, III-bo'lim, 21-maqsad).
2. Rivojlanish strategiyasi. Toshkent metallurgiya zavodi mintaqaning sanoat yetakchilaridan biriga aylanmoqchi. Batafsil.uz <https://batafsil.uz/obchestvo>. 4 December 2019.
3. Umaraliyev B. A. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017-yil. 2 bet.. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)
4. Xolmatov N. B. Milliy sanoatlashuv jarayoni muammolarini o'rganishga institutsional yondashuv "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020-yil, 1/2020 (№ 00045) 142 bet <http://iqtisodiyot.tsue.uz>.
5. Shavqiyev E. . Sanoat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – Samarqand: "STAPSEL" MChJ. nashriyot-matbaa bo'limi, 2022.
6. O'zbekiston sanoati 2019–2022. – T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2023.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

